

**PEDAGOGIK BOSHQARUVDA PSIXOLOGIK YONDASHUV.**

*Dilnoza Normurodova Ilhom qizi*

*Shahrisabz pedagogika instituti.*

*Asadbek Shukurov Turdimurod olib*

*Shahrisabz pedagogika instituti*

**KALIT SO'ZLAR:** Psixologiya, menejer, boshqaruv, menejer, pedagog.

**ANNOTATSIYA.**

Ushbu maqolada asosan pedagog uchun muhim bo'lgan boshqaruv psixologiyasi haqida ma'lumot beriladi. Yana shuningdek, o'zlikni anglash "MEN" nima ekanligini ko'zda tutilgan. Boshqaruv psixologiyasi pedagog uchun muhim ekanligini va uning yo'llari aytib o'tilgan. Boshqaruv psixologiyasidagi bir nechta yondashuvlar aytib o'tilgan. Boshqaruv yondashuvi barcha kasblarga kerakligi aytib o'tilgan.

Hozirgi zamonaviy ta'limda psixologiya nima degan fikrni ayta olamiz. Psixologiya o'zi bu aql va xulq-atvor haqidagi fan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, psixologiya ongli va ongsiz hodisalarni, kechayotgan hislarni, fikrlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Avvalo psixologik bilimlar ko'pincha salomatlikning ruhiy muammolarini baholaydi. Bundan tashqari davolaydi, u inson faoliyatining bir qancha sohalaridagi bir nechta muammolarni tushunishni va hal qilishni o'rganuvchi boshqaruv xususiyatiga ega bo'lgan bir fandır. Olimlar fikriga ko'ra, psixologiya hozirgi vaqtda jamiyat uchun foyda keldiradigan soha sifatida tan olinib kelinmoqda. Psixologiya barcha professional kasb egalari uchun kerakli va yordam beruvchi soha desak adashmagan bo'lamiz. Har bir kasb egasi boshqaruv davomida psixologiyaga yondashib, o'z ish faoliyatini boshlaydi. Ayniqsa, pedagog ish faoliyati davomida unga yordam beruvchi unga ko'maklashuvchi narsa bu haqiqatdan ham psixologiyadir. Har bir pedagog uchun boshqaruvida psixologiya muhim ahamiyatlidir. Avvalo psixologiya fani bu tizimda nufuzli o'rin egallashiga barcha obyektiv shart va sharoitlar albatta yetarlidir. Psixologiya nazar tashlayotgan bo'lsak, uning moddiy asoslari to'g'risida fikr yuritilganda eng avvalo u miyaning xususiyatlari biri ekanligini takid etish joiz albatta. Psixologiyaning yana bir narsa boshqaruv bo'lsa yana bir bu "MEN" shaxsdagi uning atrofidagi tan olgan "MEN" har bir shaxsni o'zi haqida uning atrofidagilarning fikri qiziqtiradi, albatta. Shaxsning atrofida qancha alohida ijtimoiy guruhlar mavjud bo'lsa uning uchun shuncha ijtimoiy "MEN" mavjud bo'lishi kuzatiladi. Boshqaruv tizimida "MEN" muhim deb o'ylayman. Chunki "MEN" shaxsning o'zini anglashi o'ziga baho berishi doirasidan kelib chiqqan. Psixologiya pedagog uchun yangicha qarashdir. Yangicha metod bilan o'quvchilar talabalar bir so'z bilan aytganda ilm o'rganish uchun ilmni egallashni

xohlagan har bir inson uchun unga o'rgatuvchi pedagog psixologik bo'lishi kerak. Bu zamon talabi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mening bir nechta qarashlarimda shuni angladimki hamma insonning xarakteri bilan bir xil munosabatda bo'lib suhbat olib borsak yoki uni o'zini atmosferasi bilan qiziqtirib ruhiy tomonlama bilsak, yanada boshqaruvda yangicha psixologik yondashuv bo'ladi albatta. Psixologoyaning asosiy vazifasi va predmeti bu albatta shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlaridan biridir. Pedagog psixolog bo'lish kerakdir, avvalo psixologiyada shaxsning shaxsiy va psixologik qarashlarni o'rganishga ahamiyatlidir. Insonning ruhiy holatini yaxshilash bir muncha qiyinchilikni talab qiladi. Mana masalan sizning ruhiy holatingiz yaxshi bo'lmasa, siz albatta ilm olishni istamaysiz, o'qigan taqdirda ham, uni idrok etish uqib olish qiyindir. Boshqaruv tizimida yana biz boshqaruv psixologiyasining obyektini, avvalo o'rganish obyektini shaxsning jamoada moddiy va ijtimoiy omillarni shakllantirishning qaratilgan faoliyatidir. Boshqaruv psixologiyasining maqsadi kelajakdagi menejrlarni kasbiy mahurat bilan oshirish va zamonaviy sharoitlarda ustuvor boshqarish, kelajakdagi pedagoglarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan psixologik bilimlar bilan qoniqlashtirish va malaka va ko'nikmalar tizimi bilan qurollantirishdir. Boshqaruv tizimiga ega bo'lish bu insonparvar insoniy yetakchilik konsepsiyasidan kelib chiqadi va boshqaruv vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun shaxs va jamoaning psixologik salohiyati oshirishga qaratilgandir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. E. G'aziyev "Ijtimoiy psixologiya"
2. N. Ismoilova "Umumiy psixologiya"
3. Psixologiya majmua.